

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI  
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**



**PSIXOLOGIYA TARIXI  
FANINING O‘QUV DASTURI**

**Bilim sohasi:** 300000 – Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot  
**Ta‘lim soha:** 310000 – Ijtimoiy va xulq atvorga mansub fanlar  
**Ta‘lim yo‘nalishi:** 60310300 — Psixologiya

**Toshkent – 2024**

<b>Fan/modul kodi</b> PST1706		<b>O'quv yili</b> 2027-2028	<b>Semestr</b> 7	<b>ECTS - Kreditlar</b> 6	
<b>Fan/modul turi</b> Majburiy		<b>Ta'lim tili</b> O'zbek/rus		<b>Haftadagi dars soatlari</b> 6	
1.	<b>Fanning nomi</b>	<b>Auditoriya mashg'ulotlari (soat)</b>	<b>Mustaqil ta'lim (soat)</b>	<b>Jami yuklama (soat)</b>	
	<b>Psixologiya tarixi</b>	72	108	180	
2.	<p style="text-align: center;"><b>I. Fanning mazmuni</b></p> <p><i>Fanni o'qitishdan maqsad</i> – talablarga psixologiya fanini vujudga kelishi va rivojlanishi haqidagi bilimlar, psixologiya mustaqil fan sifatida tarkib topishining tarixiy ildizlari hamda O'zbekistonda va jahonda psixologiya rivojlanish yo'lidagi yo'nalishlar va maktablar haqidagi ma'lumotlarni ta'minlash.</p> <p><i>Fanning vazifasi:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– psixologiya tarixi bo'yicha bilimlarni dolzarblashtirish va mazkur predmet bo'yicha yangi bilim olishga bo'lgan motivatsiyani shakllantirish;</li> <li>– psixologiya fanini xronologik jihatdan asoslovchi ma'lumotlarni talqin eta olishga qaratilgan ko'nikmalar rivojlantirish;</li> <li>– jahon va vatanimiz tarixida yuzaga kelgan ilg'or psixologik g'oyalarni tarixiy jarayon sifatida taqdim etish;</li> <li>– o'tmish allomalari, buyuk psixologlar tarjimai holi bo'yicha keltirilgan ma'lumotlar asosida, ilmiy psixologiyaning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib berish;</li> <li>– psixologik bilimlar haqidagi ma'lumotlarni rasmiylashtirishga va ular asosida tavsiyalar asosida taqdim etishga o'rgatishdan iborat.</li> </ul> <p><b>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</b></p> <p>Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p><b>1-mavzu. Psixologiya tarixi predmeti, vazifalari va metodlari.</b></p> <p>Psixologiyasi tarixini o'rganishning ahamiyati. Psixologiya tarixining obyekti, maqsadi, vazifalari. Uning psixika haqida ilmiy bilimlar tizimida tutgan o'rni. Psixologiya tarixi davrlashtirish: birinchi davr psixologik bilimlarning falsafa va tabiatshunoslik fanlari tarkibida rivojlanishi (IV asr mill.avv.-XIX asr o'rtalariga qadar). Ikkinchi bosqich mustaqil fan sifatida rivojlanish davri (XIX asr o'rtalari - to hozirga qadar). Psixologiya tarixi ijtimoiy jarayonlarning qonuniyatlari haqida. Psixologik g'oyalarning rivojlanishi.</p> <p>Psixologiya tarixi fan sifatida. Psixologiya fanini tadqiqot metodlari tavsifi. Qadimgi yozuvlarda psixologik g'oyalarning yoritilishi. Psixologiya fani haqida sharq manbalari. Psixologiya fanining mustaqil fan sifatida</p>				

rivojlanishi. Turli davrlarda psixologik g'oyalari talqini.

### **2-mavzu. Antik davr psixologiyasi.**

Antik davr psixologiyasida jon haqida materialistik ta'limotlarning asosiy holatlari. Antik materializm cho'qqisi, atomistik materializm. Demokrit va uning ustozlari Levkipp dunyoqarashlari (mill.avv.V asr). Antik materializm "jon" haqidagi ta'limotlar. Demokritning jon haqidagi tushunchasi. Epikurning jon haqidagi tasavvuri. Jonning 8 qismi haqidagi stoiklar tasavvurlari. Ong haqida ta'limotlar. Epikur ta'limotida tashqi va ichki hissiyot haqidagi tasavvurlar. Stoiklarning affektlar ta'limotiga qo'shgan hissalar va ularning affektlar bilan kurashishga oid tavsiyalari. Iroda va xarakter muammosi. Stoiklarda ozodlik tushunchasi. Aflotun psixologiya haqida. Aflotun ta'limotida ruhning o'limdan keyingi hayoti haqidagi tasavvurlar. Arastu ta'limotida jon tushunchasi. Jon tasnifi: o'simlik, hayvon, inson. Hissiyot haqida ta'limotlar. Arastuning faoliyati haqida fikrlari. Antik davrdagi tibbiyot olimlarining ta'limoti.

### **3-mavzu. O'rta asrlarda psixologiya muammolari.**

O'rta asr psixologiyasining umumiy xususiyatlari. O'rta asr Yevropasida falsafiy va psixologik tafakkurning asosi sifatida sxolastika. Xristian ta'limoti va sxolastikada imon va bilimning nisbati, ruhni tushunish. Inson tabiati va uning ichki dunyosining nominalizm va realizm oqimining o'ziga xosligi. IV-XII asrlarda Yevropa psixologiyasining rivojlanishi. Oxirgi o'rta asrlardagi psixologiya (XII-XV asrlar). Thomas Akvinat ta'limoti ruhni sxolastik talqin qilish. Okkam ustaza ta'limoti. Duns Skottning nominalistik ta'limoti. Tajribaning idrokdagi o'rni haqida R. Bekon.

### **4-mavzu. Sharq mutafakkirlarining psixologik g'oyalari**

X-XII asr arabiy zabon mutafakkirlarining asarlarida ruh haqidagi psixologik bilimlar. Buyuk qomusiy olim Abu Ali Ibn Sinoning (980-1037) "Donishnoma", "Risolai shic", "Tib konunlari" asarlarida psixologiya sohalariga oid ma'lumotlar. Abu Ali ibn Sino umr davrlari psixologiyasi asoschisi sifatida. Abu Ali ibn Sinoning tibbiyot psixologiyasi oid qarashlari va ularning bugungi kun fani uchun ahamiyati. Ibn al-Haysam (Algazen), Ibn Rushd (Averroes) va ularning psixologik qarashlari.

### **5-mavzu. Ong haqidagi psixologik tasavvurlar.**

Ong psixika mezoni sifatida alohida belgilanishi. Dekart ta'limotining asosi. Psixika inson ichki dunyosi sifatida. Dekart ta'limotida "jon" va "tana" tushunchasi. Dekart dualizmi (1596-1650). Spinoza psixologiyasi (1632-1677). Falsafiy ta'limotlarda (XVII) empirik psixologiyaning yuzaga kelishi. F.Bekon – empirik psixologiya asoschisi. T. Gobbs (1588-1679) ta'limotining asosiy g'oyalari. Jon Lokk (1632-1704) empirik psixologiyaning otasi. G. Leybnits (1646-1716) psixofiziologik muammosi. Assotsianistik psixologiyasining vujudga kelishi va D. Berkli (1685-1753). D. Yum (1711-1776) "Inson tabiati haqida traktat" (1739) va "Inson bilishini tadqiq etish" (1748) asarlarida assotsiatsiya tushunchasining rivojlantirilishi. D. Gartli (1705 -1757)

qarashlari. XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida nemis klassik falsafasidagi psixologik g'oyalar. Eksperimental psixologiya shakllanishiga qadar psixologiyaning ong haqidagi fan sifatida rivojlanishi. XIX asrning birinchi yarmida nemis empirik psixologiyasining paydo bo'lishi. I.F.Gerbert (1776 - 1841) psixologiyasida ruhning 2 ta asosda tashkil topishi. Gerbert shogirdlari: T. Wayts (1821 -1864), M. Lazarus (1824-1903) va G. Shteyntal (1823-1899). XIX asrda assotsiativ psixologiyaning rivojlanishi. Jeyms Mill (1773 -1836), Aleksandr Ben (1818-1903), Gerbert Spenser (1820-1903).

#### **6-mavzu. Psixologiyaning eksperimental fan sifatida shakllanishining tabiiy-ilmiy oid shartlari**

Sezgi organlari va miya fiziologiyasi, lokalizatsiya va antilokalizatsiya tendentsiyalarining o'zaro ta'siri, refleks haqidagi ta'limotining rivojlanishi, Charlz Darvin kontsepsiyasi va uning psixika haqidagi ilmiy g'oyalarni shakllantirishga ta'siri, psixologik g'oyalarning to'planishi. Chegara psixologiyasi sohalari: psixiatriya, gipnologiya, pedagogika, tibbiyot va boshqalar. Mustaqil fan sifatida psixologiyaning birinchi sohalari: sezgi organlarining psixofiziologiyasi (G.Gelmgolts), psixofizika (E. Veber va G. Fexner), psixometriya (Donders). Psixologiyaning mustaqil fan sifatida rivojlanishining birinchi dasturlari. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Yevropa va Amerikada eksperimental psixologiyaning rivojlanishi. Eksperimental usullar, asboblari va uskunalari. I.M.Sechenovning (1829-1905) psixologiya fani, vazifalari va psixika haqidagi yangicha tasavvurlari. Psixologiyaning mustaqil fan sifatida paydo bo'lish davrida E.Titchenerning nazariy ziddiyatlari (1867-1927) V.M.Bexterev (1857-1927) Rossiyada birinchi tashkil etilgan eksperimental psixologiya laboratoriyasining asoschi ekanligi (1885).

#### **7-mavzu. Psixologiyaning mustaqil fan sifatida rivojlanish bosqichi.**

Tabiatshunoslik fanlari va ilmiy tabiiy bilimlarning shakllanishi. XIX asrda sezgi organlari va nerv sistemasi fiziologiyasining rivojlanishi. Fiziolog Veber (1796-1878 y) va fizik G.T.Fexner(1801-1887 yy.) psixologiyada eksperimentni tatbiq qilish haqida. Fexner «Psixofizika» fanining asoschisi ekanligi. Psixologiya fanining mustaqil fan sifatida vujudga kelishi va uning ochiq inqiroz (XIX asrning 60-yillari XX-asrning 1906-1910 yillar) davridagi rivojlanish. Psixologiyaning mustaqil fan sifatida shakllanishida eksperimental psixologiya taraqqiyotida nemis Vilgelm Vundtning (1832-1920) o'rni. G.Ebbingauz (1850-1909) ning xotira haqidagi ishlari.

#### **8 – mavzu. Psixologiya sohasining rivojlanishi.**

Rivojlanish psixologiyasining paydo bo'lishi, bolalikni o'rganish xususiyatlari va pedagogik amaliyotda rivojlanish yondashuvlari. Eksperimental psixologiyaning rivojlanishi va bolalarni o'rganishning obyektiv usulini ishlab chiqish. S. Xoll va pedologiya. E. Meyman, K. Byuler va ularning tadqiqotlari, E. Krepelinning rivojlanish psixologiyasi rivojiga qo'shgan hissi. Differensial psixologiyaning shakllanishi (Galton, V. Shtern,

A.F. Lazurskiy va boshqalar). Sanoat psixologiyasi. Zoopsixologiya va hayvonlarning ruhiyatini o'rganish. Xalqlar psixologiyasi va etnik psixologiyada tadqiqotlarning rivojlanishi (Spenser, Lazarus, Kavelin, Vundt va boshqa olimlarning tadqiqotlari). Asr boshidagi ijtimoiy psixologiya.

### **9-mavzu. Psixoanaliz ta'limoti va uning XX asrda rivojlanishi.**

Psixoanaliz ta'limoti (S.Freyd), individual psixologiya (A. Adler), analitik psixologiya (K. Yung). Ego psixologiyasi (Anna Freyd, 1895 - 1982). Psixoanalizning boshqa sohaları. Neofreydizm. Neo freydizmning variantlari. K. Xorning konsepsiyasi (1885 - 1952). V. Rayxning "Xarakter konsepsiyasi". O.Rankaning "Tug'ilish dahshati". Psixiatriyaning shaxslararo nazariyasi G.S. Sallivan (1892 - 1949). 20 -asrning ikkinchi yarmida psixoanalizning modifikatsiyasi: E. Frommning gumanistik psixoanalizi (1900 - 1980), bolalar psixoanalizi A. Freyd. Bog'lanish nazariyasi D. Boulbi. E. Bernning tranzaksion tahlili. E. Erikson nazariyasida shaxsning yaxlitligi va shaxsiyatning shakllanishi. E. Eriksonga ko'ra, shaxs rivojlanishining sakkiz davri.

### **10-mavzu. Bixeviorizm ta'limoti**

Bixeviorizmning kelib chiqishi. E.Torndayk tadqiqotlari. Dj. Uotsonning bixeviorizm ta'limoti va uning yo'nalishni rivojlantirish dasturi. O'rganish muammosi. Antipsixologizm. Bixevioristik oqimlar (E. Tolmen, K. Xall). B. Skinnerning operativ mustahkamlash nazariyasi. Ijtimoiy bixeviorizm.

### **11-mavzu. Geshtalt psixologiyaning vujudga kelishi**

Erenfels tajribalari - yaxlitlik hodisasining kashf qilinishi. M. Vertgaymer asarlarida geshtalt psixologiyasini rivojlantirish dasturi. Geshtalt psixologiyasining tarixi va rivojlanish bosqichlari. Tadqiqotning asosiy muammolari. Geshtalt psixologiyada idrokni o'rganish. Fikrlash va aqliy rivojlanish tadqiqotlari (M. Vertgaymer, K. Kofka, V. Kyoler). K. Levinning "Maydon nazariyasi". B.V. Zeygarnik tadqiqotlari, shaxs da'vogarlighi muammosini ishlab chiqish.

### **12-mavzu. XX asrning ikkinchi yarmida psixologiyaning yangi yo'nalishlari: gumanistik, genetik va kognitiv psixologiya**

Gumanistik psixologiyaning vujudga kelishi va shakllanishi. Gordon Ollport nazariyasi. Psixologiyada ehtiyojlarni o'rganish. Abraxam Maslouning psixologiyaga qo'shgan hissasi. K. Rojers va V. Franklning nazariy va psixoterapevtik tushunchalari. K. Rojers tomonidan nodirektiv terapiya usuli. V.Franklning logoterapevtik qarashlari. AQSH psixologiyasida gumanistik psixologiyaning o'rni. Kognitiv psixologiya (S. Bruner, T. Simon, P. Lindsey, D. Norman, D. R. Anderson, X. Festinger, F. Xayder, V. Nayser, D. Broadbent, D. Payono). A.Bekning kognitiv terapiyasi mazmuni. Genetik psixologiyaning asoschisi, shveysariyalik psixolog J. Piaje va uning faoliyati. L. Kolbergning bolalarda axloqni rivojlantirish nazariyasi.

### **13-mavzu. Sovet davrida psixologiyaning rivojlanishi.**

L.Vygotskiyning rivojlanish konsepsiyasi. D.N.Uznadzening ustanovka nazariyasi. Faoliyat psixologiyasi (L.S.Vigotskiy, A.N. Leontev, S.L.

Rubinshteyn va boshqalar). Sovet neyropsixologiya maktabi (A.R. Luriya). Shaxsni har tomonlama o'rganish muammosi (V.M.Bexterev, B.G. Ananov, V.N. Myasishev, B.F. Lomov). A. V. Zaporozhskiy va P.Ya. Galperinlarning tadqiqotlari. Talabalarning aqliy faolligini shakllantirish psixologiyasi D.B. Elkonin. Psixologiyadagi individual farqlar muammosi (Teplov B.M.)

#### **14-mavzu. O'zbekistonda psixologiyani rivojlanishi va istiqbollari.**

O'zbekistonda psixologiyani vujudga kelishi. Psixologiyani rivojlanishiga xissa qo'shgan olimlar. M.G.Davletshin. M.Voxidov, V. Tokareva, G'.B.Shoumarov, V.M.Karimova, E.G'.G'oziyev, M.M.Mamatov, N.S.Safayev, B.R.Qodirov hamda Z.T.Nishanovlarning psixologiya faniga qo'shgan hissalarini. O'zbek psixologiyasida yangi maktablarni yaratilishi.

### **III. Seminar mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Psixologiya tarixi predmet, vazifalari va metodlari
2. Antik davr psixologiyasi
3. O'rta asrlarda psixologiya muammolari
4. Sharq mutafakkirlarining psixologik g'oyalari
5. Ong haqidagi psixologik tasavvurlar
6. Psixologiyaning yeksperimental fan sifatida shakllanishining tabiiy ilmiy old shartlari
7. Psixologiyaning mustaqil fan sifatida rivojlanish bosqichi
8. Psixologiya sohalarining rivojlanishi
9. Psixoanaliz ta'limoti va uning XX asrda rivojlanishi
10. Bixeviorizm ta'limoti
11. Gestalt psixologiyasi va uning vujudga kelishi
12. XX asrning ikkinchi yarmida psixologiyaning yangi rivojlanish yo'nalishlari: gumanistik, genetik va kognitiv psixologiya
13. Sovet davrida psixologiyaning rivojlanishi
14. O'zbekistonda psixologiyaning rivojlanishi va uning istiqbollari

Seminar mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

### **IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Empirizm va assotsionizm: bilim va tajriba. Nemis klassik falsafasidagi psixologik goyalar.
2. Psixologiyaning mustaqil fan sifatida tarkib topishi davridagi

	<ol style="list-style-type: none"> <li>3. nazariy kurashlar</li> <li>4. Psixologiya tarixida psixoanaliz.</li> <li>5. Yosh davrlari psixologiyasining vujudga kelish tarixi.</li> <li>6. Abu Ali ibn Sinoning psixologik g'oyalari tarixi.</li> <li>7. Psixoanaliz "vorislari" va "tuskinlik kiluvchilar"i</li> <li>8. Gumanistik psixologiya</li> <li>9. Psixologiyada tizimli yondashuv.</li> <li>10. Freydizmga tanqidiy yondashuv.</li> <li>11. U.Djeyms psixologiyasi va uning tanqidiy talqini.</li> <li>12. O'rta asr Sharq mutafakkirlarining psixologik qarashlari.</li> </ol> <p>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.</p>
<p><b>3.</b></p>	<p><b>V Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar)</b></p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• - psixologiya fanlar tizimi tuzilishi, ularning rivojlanish istiqbollari haqida;</li> <li>• - psixologik tadqiqotlarni tashkil etish, o'tkazish metodlari va uning vositalaridan foydalana olish;</li> <li>• - umumiy psixologiyaning tizimlari, tamoyillari, mexanizmlari, kategoriyalari <i>haqida tasavvurga ega bo'lish;</i></li> <li>• - psixologiya nazariyasi va metodologiyasiga aloqador tizimlar, kategoriyalar, mexanizmlar, qonuniyatlar, asosiy holatlar;</li> <li>• - insonlarning ish qobiliyatini oshirish va funksional holatini optimallashtirishni <i>bilish va ulardan foydalana olish;</i></li> <li>• - turli xil hayotiy vaziyatlarda shaxsni o'rganishda umumiy psixologiyaning har hil usullarini qo'llash;</li> <li>• - psixologik, ijtimoiy-etnik va yosh-pedagogik tadqiqotlar metodlarini qo'llash - shaxsning bilish jarayonlari xususiyatlari, uning shaxslilik xususiyatlarini shakllantirish vositalarini qo'llash <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.</i></li> </ul>
<p><b>4.</b></p>	<p><b>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma'ruzalar;</li> <li>• interfaol keys-stadilar;</li> <li>• seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>• guruhlarda ishlash;</li> <li>• taqdimotlarni qilish;</li> </ul>

	<ul style="list-style-type: none"> <li>• individual loyihalar;</li> <li>• jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.</li> </ul>
5.	<p><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ishni topshirish.</p>
6	<p style="text-align: center;"><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. E.N.Sirliyev, O.S.Mirzayev Psixologiya tarixi. O‘quv qo‘llanma T.: - 2023-y.272 b.</li> <li>2. История психологии. Древность и Средневековье: курс лекций/ сост. В.А. Космач. – Витебск: ВГУ имени П.М. Машерова, 2023. – 508 с.</li> </ol> <p style="text-align: center;"><b>Qo‘shimcha adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>3. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси.-Тошкент. “O‘zbekiston” нашриёти, 2021. - 464 б.</li> <li>4. Константинов В.В. История психологии. Стандарт третьего поколения. Учебник для вузов. – СПб: Питер, 2019. – 432 с.</li> <li>5. Константинов В. В. История психологии. Тесты: учебное пособие для вузов — Москва: Издательство Юрайт, 2024. — 18 с.</li> <li>6. Марцинковская Т.Д., Юревич А.В. История психологии. Учебник. – М.: Академический проект, 2020. – 521 с.</li> <li>7. Морозов С. М. История психологии: учебник. — М.: Издательство Московского психолого-социального университета, 2019. — 376 с..</li> </ol>
7.	<p>O‘quv dasturi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti Kengashining 20__yil ____ _____ gi __ sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.</p>
8.	<p><b>Fan/modul uchun ma’sular:</b></p> <p>Ye.V.Bondareva – O‘zMU, “Umumiy Psixologiya” kafedrasida katta o‘qituvchisi</p> <p>O.S.Mirzayev – O‘zMU, “Umumiy Psixologiya” kafedrasida o‘qituvchisi.</p>
9.	<p><b>Taqrizchilar:</b></p> <p>L.Tursunov–TDPU “Amaliy psixologiya” kafedrasida dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (turdosh OTM)</p> <p>M.Akramov – O‘zXIA, “Din psixologiyasi va pedagogika” kafedrasida dotsenti, psixologiya fanlari doktori (turdosh OTM).</p>